“Women in STEM” III xalqaro ilmiy forumi bo‘lib o‘tdi

// 14 February 2025 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/women-in-stem-iii-xalqaro-ilmiy-forumi-bo-lib-o-tdi



BMT tomonidan 11-fevral “Ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar kuni” sifatida e‘lon qilingan bo‘lib, sana munosabati bilan “Women in STEM” III forumi muntazam o‘tkaziladi.



Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik Jamiyati, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti, Ixtirochi ayollar markazi, Hindistonning Integral Universiteti, Bolgariyaning Neofit Rilski Janubiy-G‘arbiy Universiteti boshchiligida “WOMEN IN STEM” III xalqaro Forumi tashkil etildi.



O‘zbekiston va Markaziy Osiyoda fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) sohasida faoliyat olib borayotgan ayollarni jamiyatdagi o‘rnini oshirish, yoshlarning tabiiy fanlarga qiziqishlarini orttirish, olima ayol-qizlarni rag‘batlantirish maqsadida o‘tkazilgan ushbu forumda “O‘zkimyosanoat” AJ vakillari, olima ayol-qizlar, talaba-yoshlar, maktab o‘quvchilari, faol ishtirok etishdi.



Forumda ilmiy taqdimotlar, xalqaro ekspertlarning mahorat darslari, amaliy seminarlar, ilmiy loyihalar taqdimotlari va bir qator davra suhbatlari tashkil etildi.



Tadbir yakunida faxriy mehmonlarga “O‘zkimyosanoat” AJ va Toshkent kimyo-texnologiya institutining

statuetkasi, esdalik sovg‘alari hamda sertifikatlari topshirildi.





“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati